

Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil
Yanvar-avgust**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
63,4 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
3 157,1
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
9 298,2
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
66,9 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
115,4 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
112,9 %**

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 298,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 856,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,4** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	9 298,2	115,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	470,4	122,8
Moliyaviy xizmatlar	1 548,3	123,3
Transport xizmatlari	1 583,4	109,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 459,6	108,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	236,0	121,2
Savdo xizmatlari	3 164,9	116,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	258,6	112,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	423,5	113,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	208,7	114,6
Ijara xizmatlari	180,1	117,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	265,7	110,5
Shaxsiy xizmatlar	598,8	105,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	98,7	102,6
Boshqa xizmatlar	261,1	116,5




Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **123,3** %. Nisbatan past me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **102,6** %.



●●● 2021- y. Yanvar-avgust


—◆— 2022- y. Yanvar-avgust

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **1 583,4** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **109,1** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,0** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – avgust oylarida)



2022- yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **92,0** % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **93,5** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **34,0 %** ni tashkil etib, bu **3 164,9** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **2 422,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,6 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022-y.
yanvar-
avgust

3 164,9
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

2 422,4
mlrd. so'm

742,5
mlrd. so'mga

Hajmning
o'sishi

116,8 %

O'sish
sur'ati

111,7 %

2021-y.
yanvar-
avgust

2022- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **77,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,9 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,4 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2022- yilning yanvar-avgust oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo ulushi **77,5 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-avgust oylarida)

2022- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 548,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 238,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **16,6** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **310,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **123,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **126,1** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,2 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-avgust oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat

Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,5 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,5 %** ni tashkil etgan .

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar-avgust

379,1
mlrd. so'm

108,2%

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

91,3 mlrd. so'mga

2022- y.
yanvar-avgust

470,4
mlrd. so'm

122,8 %


5,1 %

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **97,2 %** ni tashkil etgan.


2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **423,5 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,6 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
Yanvar-avgust




208,7 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,2 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

114,6%



O'sish sur'ati

2021- y.
Yanvar-avgust




163,8 mlrd. so'm

2,2 %



147,2 %



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

163,9 mlrd.
so'm

236,0 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2021- y.
yanvar-avgust

2022- y.
yanvar-avgust

116,8 %

121,2 %

O'sish
sur'ati



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar


2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **72,1** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2021- y.
Yanvar-
avgust**

**2022- y.
Yanvar-
avgust**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

2022- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **77,4** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,5** % ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Namangan viloyati	9 298,2	115,4	119,8
Namangan sh.	3 816,8	121,9	120,1
tumanlar:			
Mingbuloq	347,3	111,2	121,4
Kosonsoy	474,9	112,8	119,5
Namangan t.	485,4	113,3	121,9
Norin	410,0	110,2	122,2
Pop	564,4	106,6	122,8
To'raqo'rg'on	602,0	111,5	115,1
Uychi	548,7	111,2	117,5
Uchqo'rg'on	441,7	110,9	117,5
Chortoq	502,3	110,8	120,3
Chust	640,0	116,2	119,9
Yangiqo'rg'on	464,7	108,9	117,8


2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-avgust oylarida)



2022- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **41,1 %** (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – **39,0 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,7 %** (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – **3,9 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

3 157,1
ming so'm

573,4 ming
so'mga



112,9 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 157,1** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash

uchun:

2021 - yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 583,6** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,4 %** da qayd etilgan.

2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni

22 400
birlik



1057
birlikka
o'sgan

2021- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining
o'sishi

2021- yilning
mos davriga
nisbatan
o'sish sur'ati

105,1 %



4,7 %

Ularning
umumiy
sonidagi
ulushi




2022- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,9 %** ni tashkil etdi

2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,3 %** ga to'g'ri keldi.



**Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00**